



BUGUNGI KUNDA IJTIMOIIY TARMOQLARNING INSONIYAT HAYOTIDA TUTGAN O'RNI

Narziyeva Zarina Bahridin qizi

Samarqand Davlat Chet Tillar Instituti 2-bosqich talabasi

Iskandarova Nilufar Toxirovna

Ilmiy rahbar

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi jadal, taraqqiy zamonda ijtimoiy tarmoqlarning kishilar hayotida tutgan orni va uning har bir kishi, yoshidan qat'iy nazar ularni o'ziga jalb qilayotganligi haqida va qo'shimcha ravishda, yoshlar ongiga ta'siri haqida so'z yuritiladi.

Kalit So'zlar : Axborot texnologiyalari taraqqiyoti, global tarmoq, onlayn konferensiyalar, iste'mol madaniyati, internetga qaramlik, kundalik hayot, axborot madaniyati, virtual olam, real hayot, kundalik yangiliklar

Kirish qism

Bugungi keng ko'lamda shiddat bilan rivojlanib borayotgan hayotimizni internet tarmoqlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Mamlakatimiz va dunyo miqyosida ro'y berayotgan kundalik yangiliklar deysizmi, xabarlar deysizmi barcha -barchasidan ogoh bo'lish maqsadida va ushbu informatsiyalarni uzatish bilan chambarchas bog'liq. Va sodir bo'layotgan barcha hodisalar va voqealar to'grisida ma'lumotlar ijtimoiy tarmoqlar orqali aks etib boryapti. Shubhasiz, bu yangiliklardan xabardor bo'lishda axborot texnologiyalarining xizmati ancha yuqori hisoblanadi. Shuni qo'shimcha qilish darkorki, bularning barchasi ushbu tarmoq foydalanuvchilari uchun nafaqat o'zlarining shaxsiy fikrlari, shuningdek, qarashlari va tuyg'ularini ham ifoda etishda eng qulay va tengsiz imkoniyat bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, har qanday yoshdagi kishi bo'lmasin, misli ko'rilmagan darajada ushbu texnologiyalarga "maftun" bo'lib qolmoqda. Tezlik bilan taraqqiy etayotgan zamonda yashayotgan ekanmiz, har bir insonning texnologiyalardan maksimal darajada foydalana olish qobiliyati uning axborot texnologiyalari taraqqiyoti bilan qanchalik ravishda bog'liq holda faoliyat yuritishining muhim jihatlaridan biri sifatida xizmat qiladi. Har bir shaxs o'z olamidani kelib chiqib, u yoki bu voqealar yuzasidan biron masalaga munosabat bildiradi

ASOSIY QISM

Ijtimoiy tarmoq -bu qiziqishlari, fikrlashlari, dunyoqarashlari o'xshash shaxslar yoki kishilar jamoasi o'rtasidagi o'zaro muloqot qilish jarayoni hisoblanib



,ijtimoiy munosabatlar yaratish,shuningdek,ko'ngilochar maqsadlarda ishlatiladigan platforma bo'lib xizmat qiladi . Ushbu internet tarmoqlaridam qay maqsadda foydalanish har bir insonning o'ziga bog'liq bo'lib qolmoqda . Keyingi yillarda mazkur tarmoqlarning nafaqat yosh avlod , balki , katta yoshdagi kishilarni ham o'z ta'siriga tushirmoqda . Ilm olish ,kasb -kor bilan shug'ullanish kishilarning ongida ham bularning ta'siri natijasida o'zgarishlar bo'layotgani hech kimga sir emas .Kompyuter , telefon va axborot almashishga xizmat qiluvchi INSTAGRAM , FACEBOOK , TELEGRAM , TWITTER kabi dasturlar shular jumlasidandir . Birinchidan shuni alohida ta'kidlash joizki , bugungi har qanday sohani olmang , barchasida texnika ,texnologiyalarni bilish , ulardan foydalana olish qobiliyati talab etiladi . Hattoki masofadan turib , onlayn tarzda ham ishlash kabi keng ko'lamdagi imkoniyatlar ham mavjud . Ko'plab onlayn konferensiyalar deysizmi , meetinglar deysizmi , barchasi ushbu tarmoqlar yordamida amalga oshirilmogda . Ming afsuslar bo'lsinkim , hamma ham o'z vaqtini shu tarzda samarali tashkil etib , oqilona holatda internetdan foydalana olmayapti . Salbiy jihatlar anchagina ko'zga tashlanmogda . Yoshlar go'yoki telefon va shu kabi texnika balosining komiga tobora tushib bormogda , bu esa ko'plab ota -onalar , jamiyat a'zolarini xavotirga solib bormogda , sababi esa kelajagimiz poydevori , hayotining mazmuni bo'lgan farzand deb atalmish ne'matning shu kabi texnikalarga "zombi" kabi yopishib olganini aytib o'tishimiz mumkin . Kelajak egalarining bu kabi soatlab maqsadsiz o'tirishi , har qanday turdagi yangilik yo xabarlarni qabul qilaverishi - ularning o'ta qadrli bo'lgan vaqtlarini suvga besamar oqizishdek gap bo'lmoqda . Qolaversa , ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan ma'lumotlarning anchagina qismi yosh avlod ma'naviyatining tubanlashuviga va milliy hamda diniy qadriyatlarimizga zid bo'lgan o'zga millat urf- odatlarini , "ma'naviyati " ni olib kirmogda . Bugungi kunda ijtimoy tarmoqlarda video , audio , surat yoki biron shaxs yoki maslahatgo'ylarni toppish juda oson . Ayniqsa , messenjerlar axborot almashishda katta qulaylilar beradi . Bundan tashqari , kundalik turmushda ko'p duch keladigan turli yumushlarni bajarishni ham internet ,xususan , YOUTUBE , INSTAGRAM orqali oson ravishda 'ozlashtirish mumkin bo'ladi . Oddiy misol qilib keltiradigan bo'lsak , kechgi taomnoma uchun qandaydir taom pishirishni ham bemalol o'zlashtira olamiz . Bu nafaqat , o'rganish , shuningdek , ilm tarqatishda ham turli soha vakillari uchun qo'l keladi , ular o'z pedagogik mahoratlarini namoyish etishi , virtual tarzda o'quvchilar yig'ishlari mumkin .

XULOSA



Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish joizki, Ijtimiy tarmoqlar va zamonaviy axborot- telekommunikatsiya yutuqlaridan foydalanish tizimini tartibga solish , ularning imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, istifoda etish, ma'lum bir tartibda odob -axloq qoidalariga amal qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Таранов П. Энциклопедия высокого ума. М., 1999, с.16
2. Rajabov H.I "Globalashuv sharoitida axborot tahdidlariga qarshi kurashishning zamonaviy texnologiyalarini yaratish muammolari" mavzusidagi xalqaro ilmiyamaliy konferentsiya materiallari T:. "Fan va texnologiya" 2020 yil, B-207
3. cyberleninka .ru
4. in-academy .uz